


IX.ISTE'MOL BOZORI


2021 yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8 748,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020 yilning shu davriga nisbatan 5,7 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 761,9 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 987,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 40,6 %, Urgut tumani 9,6 %, Kattaqo'rg'on shahri 6,9 %, Pastdarg'om tumani 5,5 %, Payariq tumani 3,9 %, Bulung'ur tumani 4,4 %, Samarqand tumani 3,7 %, Jomboy tumani 3,5 %, Ishtixon tumani 3,3 % va Narpay tumani 3,0 % chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida shahar va tumanlarning ulushi, % da




Viloyatda aholi jon boshiga 2021 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 206,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga ko'paydi. Asosan aholi jon boshiga eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (6 401,1 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (6 633,9 ming so'm) va Bulung'ur tumanlarida (2 025,8 ming so'm) kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	<i>Hajmi, ming soʻmda</i>	<i>Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Viloyat boʻyicha	2 206,5	103,8
Samarqand sh.	6 401,1	102,0
Kattaqoʻrgʻon sh.	6 633,9	107,6
tumanlar:		
Bulungʻur	2 025,8	103,0
Jomboy	1 705,0	108,3
Ishtixon	1 129,4	105,3
Kattaqoʻrgʻon	1 353,1	107,2
Narpay	1 192,4	103,0
Nurobod	1 222,8	104,7
Oqdaryo	1 401,0	105,6
Payariq	1 346,0	107,9
Pastdargʻom	1 340,6	104,8
Paxtachi	1 162,1	107,9
Samarqand	1 240,6	103,0
Urgut	1 612,3	104,0
Toyloq	1 138,0	106,0
Qoʻshrabot	1 289,9	107,6

Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, oʻtgan yilga nisbatan yuqori oʻsish surʼati Jomboy, Payariq, Paxtachi va Qoʻshrabot tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlari, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik savdo korxonalarining hajmi 1 761,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 20,1 foizini tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 6 987,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7 % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,9 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da




Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>Xajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>2020 yilga nisbatan, % da</i>	<i>Yakunga nisbatan, da</i>	<i>%</i>
Jami	8 748,9	105,7	100	
<i>shu jumladan:</i>				
davlat mulki	0,7	89,2	0,01	
nodavlat mulki	8 748,2	102,7	99,99	

2021 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>Xajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>2020 yilga nisbatan, da</i>	<i>%</i>	<i>Yakunga nisbatan, da</i>	<i>%</i>
Chakana tovar aylanmasi	8 748,9	105,7		100	
<i>shu jumladan:</i>					
Yirik korxonalar	1 761,9	102,2		20,1	
Kichik va mikrofirmalar	2 281,9	102,3		26,1	
Norasmiy sektor	4 705,0	108,9		53,8	

Chakana savdo tarkibi, % da



■ Yirik korxonalar ■ Kichik va mikro firmalar ■ Norasmiy sektor

Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 216,6 mlrd. so‘mni yoki 2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 119,9 foizni tashkil etdi.